



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 181 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	
GLOBALASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
Шомуродова Махфуза Аслитдиновна	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
Narziqulova Gulrux Axrorovna	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI	98
Mahmudov Abdurasul	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	102
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
SPORT FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN STRESS OMILLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	106
Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	
YOSH KELINLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA STRESS VA MOSLASHUV JARAYONLARI	111
G'afforova Dilfuza Jo'rayevna	
RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	114
Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna	
O'SMIR RUHIY FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.....	118
Mustafayeva Muxlisa	
KEKSA ODAMNING PSIXOLOGIK HOLATI KOMPLEKS REABILITATSIYA KOMPONENTI SIFATIDA.....	122
Rustamova Manzura Ne'matjanovna	
KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	126
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ВУЗА КАК СИСТЕМА САМООРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	131
Рахманова Диляра Рустемовна	
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАЗАХОВ И УЗБЕКОВ	136
Айдарова Диана Смутуллаевна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОМПЛЕКСА НЕПОЛНОЦЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ	138
Халмуратова Дилором	
TA'LIM SOHASIDA OROLBO'YI IQLIMIGA SHAXSNING MOSLASHUV STRATEGIYALARINI O'RGANILISHI.....	142
Jumamuratova Guljayna Kenesbayevna	
INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.....	145
Axmedov Alisher Gayrat o'g'li	
TARBIYACHI PEDAGOGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	150
A.K.Shamshetova	
AFFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDI O'RGANILISHI	153
Samatova Sevara G'ayratovna	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	157
Yadgarova Ozoda Ibragimovna	
MILLIY TARBIYANING PSIXOLOGIK METADOLOGIK ASOSLARI	160
Jabborov Xazrat Xusenovich	
SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHDA TOLERANTLIKNING O'RNI	166
Nazaraliyeva Marxabo Xayitboyevna	



TALABALARDA BAXTLI OILA TO'G'RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	171
Abdurayimov Sardorbek Odiljon o'g'li	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOIIY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	175
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	

SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHDA TOLERANTLIKNING O'RNI

Nazaraliyeva Marxabo Xayitboyevna

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası

dotsent v.b.b., ps.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda tolerantlikning o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, bag'rikenglik, empatiya va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy psixologik omillar sifatida yoritiladi. Shuningdek, tolerantlik madaniyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, hamjihatlikni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tolerantlikning shaxslararo muloqot, ijtimoiy ishonch va millatlararo totuvlikni rivojlantirishdagi o'rni ochib beradi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, psixologik muhit, empatiya, bag'rikenglik, ijtimoiy munosabatlar, kommunikatsiya, hamjihatlik, ijtimoiy barqarorlik.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role and significance of tolerance in the formation of a healthy psychological environment within society. The principles of mutual respect, empathy, and social justice are examined as fundamental psychological factors ensuring the stability and harmony of social interactions. Furthermore, the article highlights the psychological mechanisms through which the development of a culture of tolerance contributes to reducing conflicts, enhancing social solidarity, fostering intercultural dialogue, and maintaining societal stability. The findings emphasize that tolerance plays a pivotal role in strengthening interpersonal trust, promoting intercultural understanding, and sustaining the moral and psychological well-being of communities.

Key words: tolerance, psychological environment, empathy, forbearance, social relations, communication, solidarity, social stability.

Аннотация: В статье проводится углублённый анализ роли и значения толерантности в формировании здоровой психологической среды в обществе. Принципы взаимного уважения, эмпатии, терпимости и социальной справедливости рассматриваются как ключевые психологические факторы, обеспечивающие устойчивость и гармоничное развитие социальных отношений. Кроме того, раскрываются психологические механизмы, способствующие снижению конфликтов, укреплению солидарности, формированию культуры диалога и поддержанию социальной стабильности через развитие культуры толерантности. Результаты исследования подчеркивают значение толерантности как основы межличностного доверия, межкультурного согласия и духовного благополучия общества.

Ключевые слова: толерантность, психологическая среда, эмпатия, терпимость, социальные отношения, коммуникация, солидарность, социальная стабильность.

KIRISH

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ruhiy salomatlikni ta'minlashda tolerantlikning o'rni beqiyosdir. Globallashuv, madaniy xilma-xillik, tezkor axborot almashinuvi va kommunikatsion texnologiyalar rivoji insonlar o'rtasidagi farqlarni chuqurroq namoyon qilmoqda. Shu sharoitda boshqacha fikr, e'tiqod, qadriyat yoki turmush tarziga to'g'ri munosabatda bo'lish, uni qadrlash va konstruktiv muloqotga kirishish qobiliyati — jamiyatda psixologik jihatdan sog'lom muhitni shakllantiruvchi eng muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Psixologik muhit — bu ma'lum jamoa yoki ijtimoiy guruhda shakllanadigan hissiy, ma'naviy va axloqiy holat bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlari, hamkorlik darajasi, muloqot madaniyati va umumiy ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lgan jamoada ishonch, o'zaro hurmat va empatiya kuchli bo'ladi; bu esa shaxslararo ziddiyatlarning kamayishiga, ijtimoiy totuvlik va barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Tolerantlik esa ana shu muhitni ijobiy shakllantiruvchi shaxsiy, ijtimoiy va madaniy sifatlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Tolerant shaxs boshqalarning fikrini inkor etmaydi, balki farqlarni ijobiy qadriyat sifatida qabul



qiladi. Bunday yondashuv ijtimoiy-psixologik moslashuvni yengillashtiradi, empatik idrokni kuchaytiradi va ijtimoiy birlikni qo'llab-quvvatlaydi.

“Tolerantlik” atamasi (lotincha tolerantia — sabr-toqat, bag'rikenglik) insonning o'zgalarning fikri, e'tiqodi, madaniyati yoki turmush tarziga hurmat bilan qarash qobiliyatini ifodalaydi. Psixologiyada tolerantlik — bu shaxsning o'z ichki muvozanatini saqlagan holda boshqalarning farqli nuqtai nazarlarini qabul qilish, ularni tushunish va konstruktiv muloqotda davom eta olish qobiliyatidir.

Psixologik nuqtai nazardan tolerantlik insoniy bag'rikenglikning namoyoni bo'lib, u shaxsning yoqimsiz yoki noqulay holatlarga nisbatan keskin salbiy reaksiya bildirmasligi, balki murosaviy moslashuv strategiyasini qo'llashini bildiradi. Shaxs o'ziga yoqmaydigan vaziyatlarda ham o'z his-tuyg'ularini boshqara oladi, bu esa uning emosional barqarorligi va sotsial moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Tolerantlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar ijtimoiy munosabatlarda empatik, muloqotga ochiq va kooperativ bo'lib, ular atrofida sog'lom psixologik iqlim shakllanadi. Aksincha, intolerant munosabat ziddiyatlarni kuchaytiradi, ijtimoiy ishonchni susaytiradi va psixologik noxotirjamlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli tolerantlikni rivojlantirish nafaqat axloqiy yoki madaniy, balki psixologik barqarorlikni ta'minlovchi strategik zarurat sifatida ham qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tolerantlik masalasi o'zbek psixologiya fanida ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimiz olimlari tolerantlikni shaxsning ruhiy barqarorligi, shaxslararo muvozanatni saqlash, ijtimoiy integratsiya va empatik sezgirlik bilan bog'liq psixologik mexanizm sifatida izohlaydilar.

E. G'oziyev (2010) o'zining “Umumiy psixologiya” asarida tolerantlikni shaxsning empatik sezgirligi bilan bog'liq sifat deb ta'riflaydi. Olimning fikricha, tolerant inson — bu boshqalarning his-tuyg'ularini chuqur anglay oladigan, ularning holatiga hamdardlik bilan yondashadigan va farqli qarashlarni qadrlay oladigan shaxsdir. G'oziyev tolerantlikni insondagi ichki barqarorlik va emosional yetuklik darajasining ko'rsatkichi sifatida ham talqin qiladi. Uning fikricha, empatik sezgirlik tolerantlikning psixologik ildizidir: u boshqalarning hissiy tajribasini anglash, shu orqali konfliktlarni kamaytirish va o'zaro ishonchni mustahkamlash imkonini beradi.

M. G. Davletshin (2002) tolerantlikni ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi psixologik integratsiyani ta'minlovchi mexanizm sifatida tahlil qiladi. Unga ko'ra, tolerantlik jamiyatda ijtimoiy moslashuvni, madaniyatlararo muloqotni va shaxslararo hamjihatlikni kuchaytiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Olim “psixologik barqarorlik tolerant muhitda shakllanadi” degan konseptual fikrni ilgari surib, tolerantlikni ijtimoiy birlikning asosi, ijtimoiy ziddiyatlarga qarshi tabiiy psixologik immunitet deb hisoblaydi. Davletshinning yondashuvi tolerantlikni ijtimoiy tizimning emosional muvozanatini saqlovchi stabilizator sifatida tushunishga imkon beradi.

X. Ibrohimov (2019) tolerantlikni “psixologik immunitetning tarkibiy qismi” sifatida tavsiflaydi. Unga ko'ra, tolerantlik shaxsning ijtimoiy stresslarga bardosh berish, ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv pozitsiyani saqlash va salbiy his-tuyg'ularni boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ibrohimov tolerantlikni insonning stressga qarshi psixologik himoya tizimi bilan bog'laydi va uni sog'lom psixik rivojlanishning zaruriy sharti sifatida e'tirof etadi.

O'zbekistonlik olimlarning mazkur qarashlari tolerantlikni nafaqat axloqiy yoki sotsiologik fenomen sifatida, balki psixologik barqarorlikni ta'minlovchi shaxsiy sifat sifatida talqin etishga imkon beradi. Ularning ilmiy qarashlari tolerantlikning uch asosiy psixologik funksiyasini ochib beradi:

1. Emosional-funksional funksiya — shaxsning hissiy muvozanatini saqlash va salbiy holatlarga bardosh berish;
2. Ijtimoiy-integrativ funksiya — guruhlar o'rtasidagi hamjihatlik va o'zaro tushunishni kuchaytirish;
3. Kommunikativ-regulyativ funksiya — muloqotda empatiya, hurmat va konstruktiv fikr almashuvni ta'minlash.

Shu tariqa, o'zbek psixologiya fanida tolerantlik shaxsning ichki madaniyati, empatik sezgirligi va ijtimoiy mas'uliyatini ifodalovchi murakkab ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy-psixologik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan va kognitiv-emotsional tahlil prinsiplari tashkil etdi. Tadqiqot tolerantlikning shaxs psixologik salomatligi, ijtimoiy moslashuvchanlik va jamoaviy muhit barqarorligiga ta'sirini aniqlashga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tolerantlik — bu faqat ijtimoiy yoki axloqiy qadriyat emas, balki insonning psixologik salomatligi, ruhiy muvozanati va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlovchi shaxsiy sifatlar majmuasidir. Uning tahlili shuni

ko'rsatadiki, tolerantlik insonlar o'rtasida o'zaro ishonch, empatiya va hurmatni shakllantirish orqali sog'lom psixologik muhitni yaratadi.

Tolerantlikning asosiy turlari

Psixologik va ijtimoiy tadqiqotlar tolerantlikning bir necha ko'rinishlarini ajratadi:

- Shaxslararo tolerantlik — kundalik muloqot jarayonida boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashish, sabrli bo'lish va empatiya ko'rsatish qobiliyati.
- Madaniy tolerantlik — millatlar, dinlar, urf-odatlar va madaniyatlar xilma-xilligini qadrlash, farqlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish.
- Ijtimoiy tolerantlik — jamiytdagi turli ijtimoiy qatlam va guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat, adolat va hamjihatlikni saqlashni nazarda tutadi.

Sog'lom psixologik muhitning mazmuni

Sog'lom psixologik muhit — bu jamoa yoki tashkilot doirasida o'zaro ishonch, ochiqlik, emotsional barqarorlik, empatik aloqa va qo'llab-quvvatlashga asoslangan ijtimoiy-psixologik holatdir. Bunday muhitda inson o'zini xavfsiz, qadrlangan va erkin his qiladi.

Psixologlar (E. Fromm, A. Maslou, K. Rodjers, R. G'aniyev va boshqalar) ta'kidlashicha, jamoada sog'lom muhitning mavjudligi:

- shaxslarning ish samaradorligini oshiradi;
- stress darajasini pasaytiradi;
- konfliktlarning oldini oladi;
- ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Tolerantlik va psixologik muhit o'zaro bog'liqligi

Tolerantlik sog'lom psixologik muhitni shakllantiruvchi asosiy psixologik mexanizmlar bilan bevosita bog'liq.

Ular quyidagilardan iborat:

- O'zaro ishonch — shaxslar bir-birining fikrini qadrlashga tayyor bo'lishi;
- Emotsional qo'llab-quvvatlash — insonlar o'rtasida samimiy hamdardlik va empatik yondashuv;
- Konfliktlarning konstruktiv yechimi — ziddiyatlarni agressiyasiz, ijobiy dialog asosida hal etish;
- Hamkorlik va empatiya — birgalikdagi maqsadlarga erishishda boshqalarni tushunish va hurmat qilish.

E. Fromm (1956) "Sevish san'ati" asarida shunday yozadi: "Insonning boshqalarni sevish qobiliyati uning bag'rikengligi darajasiga bog'liqdir." Demak, tolerantlik insoniy munosabatlarda sevgi, ishonch va empatiya madaniyatining psixologik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tolerantlikning sog'lom psixologik muhitga ta'siri

Tolerantlik sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1. Kommunikativ barqarorlikni ta'minlaydi. — Tolerant shaxs boshqalarning fikrini hurmat qiladi, bu esa samimiy va ochiq muloqotni mustahkamlaydi.
2. Nizolarni kamaytiradi. — Bag'rikenglik mavjud bo'lgan jamoalarda qarama-qarshiliklar konstruktiv yechim topadi.
3. Empatiyani rivojlantiradi. — Boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish ijtimoiy birlikni kuchaytiradi.
4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni oshiradi. — Tolerant muhitda har bir shaxs o'z fikrini erkin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Empirik tadqiqot natijalari

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar (T. Ahmedova, 2022; D. Sharipova, 2023; M. Nazaraliyeva, 2024) tolerantlik darajasi va psixologik muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni quyidagicha isbotladi:


- Nizolar 35–40% ga kamaygan;
- Stress darajasi 25% gacha pasaygan;
- Shaxslararo ishonch indeksi 30% ga oshgan.

Bu natijalar tolerantlikning sog'lom psixologik muhitni shakllantirishdagi bevosita psixologik va ijtimoiy funksional rolini tasdiqlaydi.

Tolerantlikni rivojlantirish yo'nalishlari

Shaxs va jamoa miqyosida tolerantlikni rivojlantirishning asosiy yo'llari quyidagilardir:

1. Ta'lim tizimida — interaktiv darslar, treninglar, muhokamalar orqali bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish.
2. Oila muhitida — ochiq muloqot, empatiya va o'zaro ishonchni rivojlantirish.
3. Ommaviy axborot vositalarida — ijobiy tolerantlik namunalarini targ'ib qilish.
4. Ijtimoiy tarmoqlarda — salbiy stereotiplarni kamaytirish va konstruktiv fikr almashuvni rag'batlantirish.
5. Psixologik treninglar orqali — empatik ko'nikmalarni mustahkamlash va shaxslararo muloqot madaniyatini oshirish.



Tolerantlikning ijtimoiy-psixologik modeli

Ushbu ilmiy tadqiqot doirasida tolerantlikni rivojlantirishga oid to'rt strukturaviy komponentdan iborat ijtimoiy-psixologik model ishlab chiqildi:

- Kognitiv komponent — tolerantlik haqidagi bilim va tushunchalar tizimi;
- Emotsional komponent — boshqalarga nisbatan ijobiy hissiy munosabat;
- Motivatsion komponent — bag'rikeng xatti-harakatni rag'batlantiruvchi ichki ehtiyojlar;
- Xulq-atvor komponenti — tolerantlikning amaliy ko'rinishlari, ya'ni muloqot, hamkorlik va murosaviy qarorlar.

Mazkur model tolerantlikni shaxsda shakllantirishning psixologik mexanizmlarini ifodalaydi va sog'lom psixologik muhitni yaratishga xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat ijtimoiy moslashuvni, balki shaxsning emosional farovonligini ham ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tolerantlik — bu nafaqat ijtimoiy qadriyat, balki insonning psixologik salomatligi va ruhiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. U shaxslararo ishonch, ijtimoiy birdamlik, empatiya va ijobiy muloqot madaniyatini shakllantiradi. Tolerantlikning mavjudligi jamiyatda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratadi, uning yo'qligi esa ziddiyat, rad etish va ijtimoiy begonalashuvni kuchaytiradi.

O'zbekiston, Rossiya va G'arb psixologlari tolerantlikni shaxslararo munosabatlarning barqarorligini saqlovchi psixologik mexanizm sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, tolerantlik shaxsning nafaqat ijtimoiy moslashuvchanligini, balki ichki hissiy muvozanatini ham ta'minlaydi. Masalan, Y. Kul, E. Fromm, G. Allport, V. Andreeva, V. Tretyakov, V. Karimova va M. Bafayev singari olimlar tolerantlikni shaxsning emosional barqarorligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy muvofiqlik ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydilar.

Tolerantlik insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikni mustahkamlab, ruhiy barqarorlikning asosiy tayanchlaridan biriga aylanadi. Shaxsda tolerantlik darajasi yuqori bo'lsa, u boshqalarning fikr va qadriyatlariga nisbatan murosaviy munosabatda bo'ladi, bu esa jamoadagi psixologik iqlimni ijobiy yo'nalishda o'zgartiradi. Natijada konfliktlar kamayadi, hamkorlik kuchayadi va ijtimoiy birdamlik qaror topadi.


Shu nuqtai nazardan tolerantlikni psixogigienik omil sifatida ham baholash mumkin. Chunki tolerant shaxslar o'z his-tuyg'ularini boshqara oladi, agressiv reaksiya o'rniga konstruktiv muloqotni tanlaydi, ijtimoiy stress omillariga bardoshli bo'ladi. Bunday psixologik moslashuvchanlik jamiyatda emosional xavfsizlik, o'zaro ishonch va ruhiy osoyishtalikni ta'minlaydi.

Bugungi globallashuv, raqamli kommunikatsiya va madaniy integratsiya davrida tolerantlik madaniyatini shakllantirish strategik ijtimoiy-psixologik ehtiyojga aylanmoqda. Shu bois, har bir ta'lim muassasasi, mehnat jamoasi va oila doirasida tolerantlik qadriyatlarini rivojlantirish — nafaqat insonlararo muvofiqlikni ta'minlaydi, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti va psixologik farovonligi uchun ham zaruriy shartdir.

Tolerantlik madaniyati ta'lim tizimida yoshlarga nafaqat bag'rikenglikni, balki fikr xilma-xilligini qadrlash, emotsional nazorat, insoniy hurmat va empatiya kabi fazilatlarni o'rgatadi. Bu fazilatlar, o'z navbatida, ijtimoiy kapitalni kuchaytiradi, millatlararo totuvlikni mustahkamlaydi va inson omilini ijtimoiy taraqqiyot markaziga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Uzbekistan Respublikasi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yigilishidagi nutki, 2020. - 1 b.
2. Sattorova M.D. Socio-Psychological Views of Eastern Thinkers on Social Tolerance European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 Xo3.2022.ISSN: 2795-8612
3. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
4. Davletshin M.G. Psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2002.
5. Ibrohimov X. Shaxs psixologik immuniteti va tolerantlik. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Ahmedova T. Tolerantlik va yoshlar psixologiyasi. – Toshkent, 2022.
7. Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. - М.: Смысл, 2000.
8. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
9. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper, 1954.
10. Fromm E. The Art of Loving. – New York: Harper & Row, 1956.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.